

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIG'I

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA
BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**“VETERINARIYA, CHORVACHILIK, BIOTEXNOLOGIYA,
IQTISODIYOT VA AGROIQTISODIYOT SOHALARIDAGI
DOLZARB MASALALAR YECHIMIGA INNOVATSION
YONDOSHUV” mavzusidagi**

**MAGISTRLAR VA IQTIDORLI TALABALARNING
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

T O' P L A M I

2022-yil 27-28-may



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA
CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO‘MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

**“VETERINARIYA, CHORVACHILIK, BIOTEXNOLOGIYA,
IQTISODIYOT VA AGROIQTISODIYOT SOHALARIDAGI
DOLZARB MASALALAR YECHIMIGA INNOVATSION
YONDOSHUV” mavzusidagi**

**MAGISTRLAR VA IQTIDORLI TALABALARNING
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

T O‘ P L A M I

2022-YIL 27-28-MAY

Samarqand – 2022

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Veterinariya, chorvachilik, biotexnologiya, iqtisodiyot va agroiqtisodiyot sohalaridagi dolzarb masalalar yechimiga innovatsion yondoshuv” mavzusidagi Magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2022-yil 27-28-may.

Ushbu konferensiya to‘plamiga Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida 2022-yil 27-28-may kunlari o‘tkazilgan “Veterinariya, chorvachilik, biotexnologiya, iqtisodiyot va agroiqtisodiyot sohalaridagi dolzarb masalalar yechimiga innovatsion yondoshuv” mavzusidagi Magistrlar va iqtidorli talabalar tomonidan taqdim etilgan materiallar kiritilgan.

Tahrir hay’ati a’zolari:

B.f.d., professor X.B.Yunusov, v.f.d., professor A.S.Daminov, Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i S.A.Nurbayev, Magistratura bo‘limi boshlig‘i Z.F.Normurodova, Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi 1-toifali muhandisi A.X.Xamrayev., ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari: A.Ro‘ziyev, O.Achilov, O.Maxmadiyarov, Sh.Azamatov, G‘.Obro‘yev.

*To‘plamga kiritilgan materialdagi ma’lumotlar to‘g‘riligi uchun
mualliflar mas’ul hisoblanadi.
Tahrir hay’ati.*

UDK: 638.1: 619

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA VARROATOZNING TARQALISHI VA QARSHI KURASH CHORA - TADBIRLARI*(Adabiyot ma'lumotlari bo'yicha)***Magistrant:** Sulaymanov S. B.,**Ilmiy rahbar:** v.f.f.d., (PhD) Xudjamshukurov A.N.

Annotatsiya. Ushbu maqolada asalarilarning hayotida varroatoz kasalligi, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar, rivojlanish sikllari, patogenez, klinik belgilari, diagnoz va differensial diagnoz, uning salbiy oqibatlari, iqtisodiy zarari kasallikning tarqalishi va oldini olish chora tadbirlari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar. *Varroa destructor, Varroa jacobsoni, Varroa Underwodi, Varroa rinderi, gamaz kanasi. kuchsiz oila, deytomif, gemolimfa.*

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi vaqtda respublikamizda barcha sohalar kabi asalarichilikda ham qator qarorlar ishlab chiqilgan va bu sohani rivojlantirishga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-3327-son, 2017-yil 16-oktyabrdagi 0128-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasi tashkil etildi. Asalarichilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, asalarichilik sohasidagi ilg'or tajribalarni respublikalarimizning barcha hududlarida tadbiq etish Prezident qarorlarida ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Adabiyot ma'lumotlaridan ma'lumki, varroatoz (varrooz) voyaga yetgan arilar, qurtchalar va g'umbaklarining og'ir kechuvchi invazion kasalligi bo'lib, majruh, ucha olmaydigan erkak va arilarning paydo bo'lishi, ari oilalarini kuchsizlanishi va ularning nobud bo'lishi bilan kechadigan kasallik. Varroatoz kasalligi (Xalqaro epizootik byuroning B ro'yxatiga kiradi). Kasallikning qo'zg'atuvchisi-gamaz kanasi *Varroa destructor*, oldinlari *Varroa jacobsoni* deb nomlangan. Jami ushbu kananing to'rtta turi qayd etilgan: *Varroa destructor*, *Varroa jacobson*, *V. Underwoodi* va *V. rinderi*. Yaqingacha kasallikning qo'zg'atuvchisi deb *Varroa jacobsoni* kanasi hisoblangan. Biroq, kasallikning qo'zg'atuvchisi *Varroa destructor* kanasi ekanligi isbotlab berilgan. Kananing urg'ochisi jigar rangli bo'lib, yelka tomonidan bir oz do'ngli, o'lchami 1,1 x 1,5 mm. Tanasi tukchalar bilan qoplangan, teshuvchi-so'ruvchi og'iz apparatiga ega, 4 ta yaxshi rivojlangan oyoqlari mavjud. Arilarning gemolimfasi bilan oziqlanadi, buning uchun qurtchalar va voyaga yetgan arilarning xitin qobig'ini teshadi. Erkagi oq - sut rangli yoki biroz sarg'ishsimon, uzunligi 0,8-0,9 mm, eni 0,6-0,9 mm, oziqlanmaydi. Voyaga yetgan arilarda kanalar qorin qismida, ba'zan ularni boshi va ko'kragi orasidan topish mumkin. Ularni hayotining davomiyligi havoning harorati va namligiga bog'liq bo'lib, bir necha kundan bir necha oygacha davom etadi.

Kasallikni birinchi marta kana Yava orolida 1909 yili aniqlangan. O'sha paytda kana asalarilarda emas, balkim o'rta Hindiston arilarida parazitlik qilgan, lekin keyinchalik yangi xo'jayinga o'rganib ketgan va keng tarqalib borgan. Asalarilarda *Varroa jacobsoni* kanasining parazitlik qilishi haqidagi ma'lumotlar Xitoyda 1958 yili paydo bo'lgan. Aniqlanishicha, bunga insonning xo'jalik faoliyati sababchi bo'lgan. Kasallik Osiyo, Yevropa, Amerika, Shimoliy Afrika davlatlarida, sobiq ittifoqda 1964 yillarda keng tarqalgan. Bugungi kunda kasallik O'zbekiston Respublikasida keng tarqalgan va ular bilan 80-90% gacha asalarizorlar zararlangan. Zararlanish manbai - kasallangan asalari oilalaridir. Sog'lom asalari oilalarini kasallanishiga adashib uchib yuradigan arilar, erkak arilar, o'g'ri arilar, uyasidan uchib ketgan ari oilalari, ko'chishga uchragan oilalari va ona arilarni sotib olish sabab bo'ladi. Kanalarning asosiy joylashish joyi ko'payish manbai uya ichidagi arilar hisoblanadi. Arilarning erkak nasllari ishchi arilarnikiga nisbatan 10 marta ko'proq zararlanadi.

Kanalarning rivojlanishi asalari oilasining biologiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Parazitning urg'ochisi ari in katakchasining tagiga ishchi arining qurtchasi bilan incha yopilishidan oldin bir kun qolganda, erkak ari qurtchasi bilan esa 1-3 sutka qolganda kirib oladi. In katakchasi yopilgandan keyin 2-3 kun o'tgach kana birinchi tuxumini qo'yadi (odatda, erkak tuxumini). Keyinchalik 1-2 kunlik oraliqda 7 dona tuxum qo'yadi (odatda, urg'ochi tuxumlari). To'liq rivojlanishga faqat 2-3 ta kana yetadi.

Bir in katakchasiga bir nechta kanalarning kirib olishida ularning qo'ygan tuxumlarining soni keskin kamayadi. Erkak kananing to'liq rivojlanish sikli 5,5-6,3 sutka davom etadi, urg'ochisining 6,5-6,9 sutka. Erkagi faqat yosh urg'ochi kanalarni otalantiradi, ular in katakchasi ochilgandan keyin tuxum qo'ygan ona kana bilan uni tark etadilar. Erkak kana nobud bo'ladi. 4-5 kundan keyin urg'ochi kana in katakchasiga yana qaytadan kiradi va yangi tuxum qo'yadi. Hayoti davomida urg'ochi kana 25 donagacha tuxum qo'ya oladi, buning uchun unga 3-4 ta tuxum in katakchasi kerak bo'ladi. Kasallikni klinik belgilari tashqi tomondan zararlanish bo'lib o'tgandan so'ng 2-4 yildan keyin bilinadi va u asalari oilasining zararlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Kanalar soni odatda, mavsum boshlanishi bilan sekin - asta ko'payib boradi. Faol mavsum davomida klinik belgilar xohlagan vaqtda aniqlanishi mumkin, lekin, odatda, kanalarning maksimal soni mavsum oxirida ko'payadi, bunda arilar tomonidan tuxum qo'yish miqdori kamayadi.

Ari in katakchalaridan yorib chiqqan zararlangan arilar mayda, yengil vaznli, majruh bo'ladi. Ishchi arilar va erkak arilarda qorin qismi kichrayadi, qanotlari bo'lmasligi mumkin, deformatsiyalangan, rivojlanmagan bo'ladi.

Arilarning hayotchanligi qisqaradi, ular har xil kasalliklarga moyil bo'lib qoladi. Kuchli zararlanish hollarida qo'yilgan tuxumlar rangida o'zgarish bo'lib, nobud bo'lgan qurtchalar va g'umbaklar chirishning har xil davrida bo'ladi, in katakchalarida chirigan massa oson tozalanadi, tuxum qo'yilgan mum in katakchalardagi qopqoqchalar usti pachoglangan, ba'zilarida uya chetlari notekis, noto'g'ri shaklli, kanalarning axlatlari bilan chetida oq izlar qolgan bo'ladi. Kasallangan oilalar o'zlarini oziqa bilan ta'minlay olmaydi, kuchsizlanib boradi va ayniqsa, kuzda, oziqat zahiralari shakar sharbati bilan to'ldirilganda, nobud bo'lishadi. Qishga shakllangan oila a'zolari yaxshi g'uj bo'lmaydi, ular ichaklarini uyal ichiga to'kishadi, qishlov davrida nobud bo'lishadi yoki keskin ravishda kuchsizlanib, qotib qolgan arilar soni ortadi. Ko'pincha varroatoz nozematoz va boshqa kasalliklar bilan birga kechadi [7].

Kasallikka diagnoz qo'yishda arixonalarining o'zida yoki laboratoriya sharoitida qo'yiladi. Tekshirish uchun laboratoriyaga o'lgan arilarni, ari uyachalari tagidan olingan axlatlardan, yopiq nasllardan namuna olib jo'natiladi. Jo'natilgan arilar, o'lgan yopiq nasllarini va axlatlarda kanalar bor-yo'qligini lupalar yordamida tekshiruvdan o'tkaziladi.

Arixonalarda, ari qutilarida to'g'ridan-to'g'ri uchib kelib qo'nadigan taxtalardagi axlatlarda kanalar borligiga tekshiriladi. So'ngra esa ari oilasi ochiladi, birin-ketin qismlarga ajratiladi va kana borligiga tekshiriladi. Arilarning qorinchasida, ko'kragida yetuk kanalarni ko'rishimiz mumkin, ari g'umbaklarida esa kana tuxumlari, protonimfa va deyttonimfalarni topish mumkin. Kanalarning to'rt juft oyoqlari mavjud [2].

Varroatozga gumon qilinganda veterinariya laboratoriyasiga qishqi paytda arilarning murdalari va uya tubidagi mum-perga qoldiqlarini. asalarizordan 200 grammdan kam bo'lmagan miqdorda yuborishadi, bahorda ramkaning pastki qismidagi 3x15 lik mum in katakchalari tuxumlari bilan hamda uya tubidagi o'choqlarni, yozda va kuzda - erkak arilar yoki ishchi arilar tuxumlari qo'yilgan ramkalarni to'liq yoki oila o'rtasidan olingan uya ichidagi arilarning 50-100 tasini, asalarizordagi 10 % oilalardan olinib yuboriladi [7].

Kasallikning profilaktikasida - invazion kasalga chalinmagan arixona arilarini alohida joyda 15 km atrofida ari bo'lmagan maydonda boqiladi. Ona ari va kichik yangi oilalar kasallanmagan arixonalaridan sotib olinadi. Arixonada kuchsiz ari oilalarini ushlash tavsiya etilmaydi. Mabodo cheklab qo'yilgan arixona joylashgan joyda, gullab turgan gulchang beruvchi o'simliklar

bo'lmasa, u holda oqsil moddasi bor ozuqa bilan ozuqalandirilib turiladi. Arixonada ari uyalarini quruq, shamol tegadigan oftobli joyda yerdan 30-40 sm baland qoziqlar ustiga o'rnatiladi. Arixonadagi qurol-aslaha hamda foydalaniladigan moslamalarni dezinfeksiya qilib turiladi [3].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki varroatoz kasalligi asalarilarning invazion kasalligi bo'lib asalarichilik sohasiga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Varroatoz kasalligiga qarshi vaqtida ishlov berilmasa asalarilarga juda katta havf keltiriladi. Sanitariya qoidalariga e'tibor berish va oilani kuchli bo'lishiga ko'maklashish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qaxramanov B.A. va boshq. "Asalarichilik asoslari" Toshkent – 2021 yil
2. Xaqberdiyev P.S, Qurbonov F.I, Qarshiyeva V.Sh "Baliq va asalari kasalliklari" Toshkent -2016 yil "Navro'z" nashriyoti.
3. Isamuxammedov A.I., Nikadambayev X.K "Asalari kasalliklari va zararkunandalari" Sharq nashriyot Toshkent – 2013 yil
4. Kraxotin N.F. "O'zbekistonda asalarichilik" Toshkent- Mehnat, 1991 yil
5. Kokorov N, Chernov B. "Pchely bolezni i vrediteli" Moskva 2005
6. Isamuxammedov A.I., Nikadambayev X.K. "Asalarichilikni rivojlantirish asoslari" Sharq nashriyoti, Toshkent – 2013 yil.
7. Nasimov.Sh.N. va boshq. "Asalari kasalliklari va zararkunandalari" o'quv qo'llanma, Fan ziyosi nashriyoti, Toshkent -2021.

УДК: 591.412

ОСНОВЫ СТРОЕНИЯ И РАБОТЫ СЕРДЦА

Студент: Тожиддинов И.Н. 217ой группы факультета «Ветеринарная профилактика и лечение» СамГУВМЖБ.

Мирсаидова Р.Р. ассистент кафедры «Физиология, биохимия и патологическая физиология животных» СамГУВМЖБ.

Аннотация. В этой работе будут рассмотрены основные принципы строения, работы и жизнедеятельности сердца. С точки зрения эмбриологии, цитологии, гистологии и нормальной физиологии, то есть можем объяснить уникальность свойства сердца. Вопросы о том "Почему сердце не устаёт?" и "Своеобразие строения каждой клетки ткани и целого органа".

Ключевые слова. Сердца, миокард, эндо- и эпикард, митохондрия, висцеральные листки, кардиомиоциты, анаэробный, узел, плазмолема, эмбриология, Ашоффа-Тавара, пучок Гисса, саркомер, волокна Пурькине, гликолиз, десмосы, иннервация.

Введение. Сердце-основной, полый фиброзно-мышечный орган, своеобразный насос обеспечивающий посредством повторных ритмичных сокращений ток крови по кровеносным сосудам. Сердце позвоночных состоит главным образом из сердечной, эндотелиальной и соединительной ткани. При этом сердечная мышца представляет собой особый вид поперечнополосатой мышечной ткани, встречающейся в сердце [6].

Актуальность. У млекопитающих оно состоит из двух соединенных половин правой и левой. Как правая, так и левая половина имеют два отдела – предсердий и желудочек, сообщаемые через отверстия, на границе которых расположены открывающиеся в желудочки клапаны. Кроме клапанов, важную роль в механизме замыкания атриовентрикулярных отверстий имеют кольцевые мышцы, окружающие эти отверстия. От левого желудочка отходит аорта, а от правого легочное отверстие, у этих отверстий расположены полулунные клапаны. Они закрыты во время диастолы и открыты во время

MUNDARIJA

Yunusov X.B., Daminov A.S. Ilm taraqqiyotiga katta imkoniyat 3

**1. VETERINARIYA SOHASIDA QO‘LLANILADIGAN INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR VA MUAMMOLAR - YUQUMLI, YUQUMSIZ VA PARAZITAR
KASALLIKLARNI OLDINI OLISH VA SAMARALI DAVOLASH BO‘YICHA
ERISHILGAN YUTUQLAR HAMDA MAVJUD MUAMMOLAR**

1. Raxmonov D.A., Usmanova L., Asqarov S.S., Ro‘ziqulov N.B.	
Qorako‘l sovliqlarni dispanserlash natijalari.....	5
2. Axatov Q., Isaev M. Magestrofanni sigirlar qonining ayrim morfologik ko‘rsatkichlariga ta’siri.....	8
3. Abdumalikova M.Q., Djumanov S.M. Nospetsifik stimullovi vositalar va gonadotrop preparatlarni mahsuldor sigirlar reproduktiv organlar funksiyalariga ta’siri.....	10
4. Azimov M.M., Eshburiyev B.M. Kataral-yiringli endometritlarni davolash va oldini olishni takomillashtirish.....	13
5. Bahridinov Q.S., Bakirov B.B. Buzoqlarda aralash pnevmoniyani davolash usullarini takomillashtirish (<i>Adabiyotlar taxlili bo‘yicha</i>).....	15
6. Bozoraliyeva N., Ulasheva L., Aslanova Yu. Broylar jo‘jalar bezli oshqozonning postnatal morfogenezi (<i>Adabiyotlar ma’lumotlari asosida</i>).....	18
7. Davlatov K.M., Bektanova H. Norboyev.Q.N. Buzoqlar d gipovitaminozining sabablari va oldini olish (<i>Adabiyotlar tahlili bo‘yicha</i>).....	21
8. Egamberdiyeva Z.S., Eshburiyev B.M. Sigirlarda tug‘ruqdan keyingi septisemiyaning sabablari, rivojlanish mexanizmlari, diagnostikasi, davolash va oldini olish usullari (<i>Adabiyotlar tahlili bo‘yicha</i>).....	23
9. Elmamatov Sh.I., Baxtiyorov I.I., Bahramov J.A., Mamatova Z.N. Asalarichilikda salmonellyozni oldini olishda probiotiklarni qo‘llash.....	26
10. Qilichov A.F., Elmurodov X.D., Sharapov M.A. Xlorella suv o‘tlarining rivojlanish dinamikasi va uning parrandachilik hamda baliqchilikda ahamiyati.....	30
11. Erbutayev Sh.X., Eshburiyev S.B. Asalarilarning kimyoviy moddalardan zaxarlanishlari oqibatida kelib chiqadigan salbiy oqibatlar.....	32
12. Ibroximov S.O., Mirzakosimova K., Siddiqov B.T., Botirova Sh.A. Sigirlarda tuxumdonlar gipofunksiyasining epizootologiyasi (<i>Adabiyotlar tahlili</i>).....	36
13. Аззамов С.З., Сафаров М.М., Сафаров М.Б. Голштин зотли сермахсул сигирларнинг Самарқанд вилояти шароитидаги клиник ва қоннинг айрим морфологик кўрсаткичлари.....	39
14. Isoqulova M.T., Nurullayev A.A. Xlorofos preparati qo‘llanilgan qoramollarning gemotologik ko‘rsatkichlari.....	41
15. Kokilov B.R., Djumanov S.M. Tug‘ruqdan keyingi kasalliklarni davolashda farmakologik vositalar samaradorligi (<i>Adabiyotlar tahlili bo‘yicha</i>).....	43
16. Majidov S., Nasimov Sh. Kulangi zotli parrandalarda gelmintokoprologik tekshirish.....	46
17. Mamatqulov A., Yulchiyev J.B. Yirik shoxli mollarda katta qorin fistulasini o‘rnatishning ahamiyati va texnikasi.....	48
18. Murodillayev Sh.H., Shomurodov M.A., Xoliqov A.A. Estromaxni sigirlar qonining ayrim morfologik ko‘rsatkichlariga ta’siri.....	52
19. O‘ktamov A.A., Eshburiyev B.M. Buzoqlarda uvizli toksikoz kasalligini davolash va oldini olish (<i>Adabiyotlar tahlili bo‘yicha</i>).....	55

20.	O'rmonov A.X., Tashtemirov R.M. Sport otlarida miozitlarning etiopatogenezi va davolash.....	57
21.	Qirg'izboyev M.A., Xudjamshukurov A.N. Broylar jo'jalarining eymeriozini davolash va oldini olish (<i>Adabiyotlar tahlili bo'yicha</i>).....	60
22.	Qilichov A.F., Sharapov M.A., Bo'ronov S.R. "Cyanophyta" ya'ni ko'k-yashil suv o'ti va uning shifobaxsh xususiyatlari.....	62
23.	Rashidov B.S., Kuliyeu B.A. Sigirlarda bola tashlashlarni sabablari va profilaktikasi (<i>Adabiyotlar tahlili bo'yicha</i>).....	64
24.	Saparov O., Salimov Yu. Ferula assafoetida o'simligining dorivorlik xususiyatlari	68
25.	Shirnazarov U., Xoliqov A.A. Megavit preparatini farmakologik xususiyatlari.....	70
26.	Shodimurotov Sh.I., Djumanov S.M. Hayvonlarning patologik tug'ushlarida akusherlik yordami ko'rsatish usullari (<i>Adabiyotlar tahlili bo'yicha</i>).....	72
27.	Soyibov A.Z., Mavlanov S.I. Dezinfekcion moddalar ta'sirini farmakologik samaradorligi.....	75
28.	Sulaymanov S.B., Xudjamshukurov A.N. Asalarichilik xo'jaliklarida varroatozning tarqalishi va qarshi kurash chora – tadbirlari (<i>Adabiyot ma'lumotlari bo'yicha</i>).....	78
29.	Тождидинов И.Н., Мирсаидова Р.Р. Основы строения и работы сердца.....	80
30.	Toshmurodov Sh.S., Nasimov Sh.N. Baliqlarda moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari.....	85
31.	Uzoqov O.O., Muxtorov B.Z. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarda yiringli pododermatit kasalligini keltirib chiqaruvchi etiologik omillar.....	88
32.	Xolova U., Qo'chqorova S.Q. Asalarilarning braulyoz kasalligi.....	91
33.	Yangiboyev B., Bakirov B. Sigirlarda katta qorin asidozining sabablari, davolash va oldini olish choralari (<i>Adabiyotlar tahlili bo'yicha</i>).....	93
34.	Zarifov.H.R., Komiljonov K.K. Alkaloidlar va ularning veterinariyadagi o'rni (<i>Adabiyotlar tahlili asosida</i>).....	96
35.	Zayniddinov B.H., Narziyev B.D. Itlarda qinning chiqib qolishi kasalligini operatsiya usulida davolash.....	98
36.	Dauletbayev N.P., Tashtemirov R.M. Qoramollarda rustergols yarasining etiopatogenezi va uni davolash.....	100
37.	Bekmuratov K.R., Narziyev B.D. Itlarni jarohatlarini zamonaviy usul bilan davolash.....	104
38.	Kipchakov Sh.U., Eshburiyev B.M. Sigirlarda bepustliklarning turlari va etiopatogenezi.....	106
39.	Kokilov B.I., Jabborov A.G'., Niyozov H.B. Otlarida tuyoq bo'g'imi yiringli yallig'lanishlarini etiologiyasi.....	109
40.	Xalilov L.N., Salimov Yu. Sanoat ishlab chiqarish chiqindilarini hayvonlar organizmiga ta'siri.....	112
41.	Mirzanova F., Mirzanova M., Farmonov N. Parrandalarni o'sish va rivojlanishida vitaminlarni tutgan o'rni.....	115
42.	Omonov Sh., Xoliqov A. Eleovit preparatini buzoqlarni o'sish va rivojlanishiga ta'siri.....	119
43.	Бобоева Ф., Холиков А., Нуруллаев А. Влияния пробиотического препарата ВЮ-3S и витамина с на продуктивные качества и гематологические показатели крови цыплят-бройлеров.....	121
44.	Aslonova M.A., Yusupova Z.M., Eshburiyev S.B. Baliqlarning o'sish va rivojlanishiga suv muhitining ta'siri.....	126
45.	Ergashev J.M., Yusupova Z.M., Eshburiyev S.B. Parrandalarda gipovitaminozlarning turlari.....	129